SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

IKROMOVA DILDORA ISROILOVNA

SODDA MAXSUSLIKLAR BILAN BOG‘LANGAN EKSTREMAL MASALALAR

01.01.01–Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2025

UDK: 517.984

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

IKROMOVA DILDORA ISROILOVNA

SODDA MAXSUSLIKLAR BILAN BOG‘LANGAN EKSTREMAL MASALALAR

01.01.01–Matematik analiz

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/FM935 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Abdullayev Janikul Ibragimovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Xalmuxamedov Alimdjan Raximovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Safarov Akbar Raxmanovich fizika-matematika fanlari doktori(DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «2» 12 soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866)231–06–32, faks: (+99866) 235–19–38, e-mail: patent@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (94 raqam bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866)231–06–32, faks: (+99866) 235–19–38.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «18» 11 kuni tarqatildi.
(2025 yil «18» 11 dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI • SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI • O'ZBEKISTON

A.S. Soleev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

A.M. Xalxo'jayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

S.N.Lakayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari doktori, professor, akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda olib borilayotgan koʻplab ilmiy va amaliy tadqiqotlarda, xususan, matematik fizika va spektral analizning koʻpgina muammolarini yechishda katta va kichik parametrlarga ega boʻlgan tebranuvchan integrallarni baholash masalalarini tadqiq qilishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda qat'iy giperbolik tenglamalar uchun Koshi masalasining yechimlariga dastlabki (a-prior) baholar olish masalasi tebranuvchan yadroli oʻrama operatorlarining $L^p(\mathbb{R}^n)$ kabi Lebeg fazolarida chegaralanganlik muammosi bilan bogʻliq. Matematika va nazariy fizikada, shuningdek, Furye analizi va garmonik analizda koʻplab modellar differensial tenglamalar va ulardanda umumiyroq boʻlgan psevdo-differensial tenglamalar yordamida ifodalanadi. Shuning uchun garmonik analizga oid tadqiqotlarni rivojlantirish matematika sohasida muhim ahamiyatga ega boʻlmoqda.

Jahonda garmonik analiz va uning matematik fizika hamda Furye optikaga tatbiqlari bilan bogʻliq ilmiy tadqiqotlar keng miqyosda olib borilmoqda. Ma'lumki, differensial tenglamalarning silliq funksiyalar aniqligidagi taqsimotlar fazosidan boʻlgan umumiy yechimini topish qiyin muammo hisoblanadi. Shubhasiz, yechimning maxsusligi unga silliq funksiyani qoʻshish bilan oʻzgarmaydi. Shuning uchun koʻp hollarda differensial tenglamalarning silliq funksiyalar aniqligidagi taqsimot yechimlarini tuzishga oid tadqiqotlar muhim oʻrin tutmoqda. Bu borada amaliyotda umumiy taqsimot ma'nosidagi yechimdan koʻra kuchsiz yechimlar keng qoʻllaniladi. Integrallanuvchi funksiyalar fazosiga asoslangan differensial tenglamalar yechimlarini tahlil qilish uchun koʻplab tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, qat'iy giperbolik tenglamalar, shuningdek, diskret tenglamalar yechimlari koʻplab ishlarda oʻrganilgan. Boshlangʻich shartlarga bogʻliq boʻlgan va dispersiv baholar deb ataluvchi yechimlar uchun a-priori (dastlabki) baholar matematik fizika sohasida koʻplab tatbiqlarga ega boʻlgani bois, bunday tadqiqotlarni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Respublikamizda amaliy va fundamental fanlar orqali ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega boʻlgan tadqiqotlar boʻyicha keng qamrovli izlanishlar olib borilmoqda. Furye analizi va uning operatorlarining spektral yoyilmalari hamda matematik fizika, amaliy matematika sohalaridagi tatbiqlari ustida muhim ilmiy tadqiqotlarga katta e'tibor qaratilmoqda. "Algebra va uning tatbiqlari, differensial tenglamalar va ularning tatbiqlari, chiziqsiz tizimlar, dinamik tizimlar va ularning tatbiqlari, matematik modellashtirish, stoxastik tahlil, tibbiy-biologik informatika, hisoblash matematikasi"[1] fanlarning ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha xalqaro standartlar darajasida tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyat yoʻnalishlari etib belgilangan. Ushbu vazifani amalga oshirilishini ta'minlash uchun tebranuvchan integrallarning nazariy tushunishni shakllantirish

---

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" gi qarori.

juda muhimdir, sirt o‘lchovlari Furye almashtirishi, shunindek, tebranuvchan yadroli o‘rama bilan aniqlangan Furyening integral operatorlari uchun baholar olish muhim ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-sonli “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi va 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustivor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bizga ma’lumki qat’iy giperbolik tenglamalar uchun Koshi masalasining yechimi o‘rama operator ko‘rinishida beriladi. O‘rama operatorning yadrosi sirtda mujassamlashgan o‘lchovlar yoki silliq gipersirtlarda mujassamlashgan zaryadlar Furye almashtirishi bilan berilgan tebranuvchan integral orqali aniqlanadi. Agar gipersirtning balandligi ikkidan qat’iy kichik bo‘lsa, shu gipersirt bilan bog‘liq bo‘lgan faza funksiyasi, faqat Arnoldning sodda maxsusliklariga egadir.

Boshqa tomondan, sirtlarda mujassamlangan zaryadlar Furye almashtirishining integrallanish ko‘rsatkichining aniq qiymatini topish masalasi matematikaning ayrim sohalari uchun muhimdir. I.M.Vinogradov, Xya-Lo-Gen, A.A.Karatsuba va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan trigonometrik yig‘indilarni baholash usuli uchun bu masalani yechish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Integrallanuvchilik muammosini o‘rganish uchun yana bir turtki uning biror daraja bilan yig‘iluvchi funksiyalar Furye almashtirishini o‘lchovi nolga teng bo‘lgan to‘plamlarga cheklash (toraytirish) bilan bog‘liqligidir. Furye almashtirishini silliq sirtlarga cheklash bo‘yicha ba’zi natijalar ma’lum. Ushbu natijalar bilan batafsilroq tanishish uchun Steinning klassik monografiyasiga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.

Biroq, bizning bu masalaga qiziqishimiz matematik fizikaning boshqa muammosidan kelib chiqadi. Aniqroq aytganda, bizni giperbolik tenglamalarning xarakteristik sirtlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘rama operatorlari yoki Furyening integral operatorlari uchun baholar bilan bog‘liq muammolar qiziqtiradi. Bundan tashqari, funksiyalarni manfiy daraja bilan integrallash masalasi umumlashgan Fridrixs modelining spektri haqidagi muammo bilan bog‘liq. Bu mulohazalar matematik fizika va garmonik analiz kabi zamonaviy sohalarda muhim ahamiyatga ega va bu yuqorida muhokama qilingan masalalarning ahamiyatini va dolzarbligini tushuntiradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universitetida OT-F4-69- "Garmonik analiz, darajali geometriya va ularning matematik fizika masalalarini yechishga tadbiqlari" (2017-2021) mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Sirtlarda mujassamlashgan o'lchovlar Furye almashtirishini cheksizdagi xarakterini tadqiq qilish va qat'iy giperbolik tenglamalarga qo'yilgan Koshi masalasi yechimlari uchun a-prior baholar olish. Ya'ni bu tenglamalar bilan bog'langan o'rama operatori chegaralangan bo'ladigan kritik ko'rsatkich qiymatini topish. Bundan tashqari, sirt o'lchovlarining Furye almashtirishining biror daraja bilan integrallanishi masalasini ko'rib chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

E_7 va E_8 tipidagi maxsusliklarga ega bo'lgan funksiyalar grafiklari sifatida berilgan gipersirtlarda mujassamlashgan o'lchovlarning Furye almashtirishining baholarini aniqlash;

D tipidagi maxsusliklarga ega bo'lgan sirtlar bilan bog'langan o'lchovlar orqali aniqlangan Randol tipidagi maksimal funksiyalarning integrallanish ko'rsatkichini topish va uni aniqligini isbotlash;

E_7 va E_8 tipidagi maxsusliklarga ega bo'lgan funksiyalar grafigi shaklida berilgan sirtlarda mujassamlashgan o'lchovlar bilan bog'liq Rendol tipidagi maksimal funksiyalarning integrallanish ko'rsatkichini topish va integrallanish ko'rsatkichining aniqligini isbotlash;

Qat'iy giperbolik tenglamalar uchun qo'yilgan Koshi masalasining yechimi bilan bog'langan o'rama operatorlari chegaralangan bo'ladigan kritik ko'rsatkichni aniqlash.

Tadqiqotning ob'yekti. Xarakteristik gipersirt, gipersirtlarda mujassamlashgan o'lchovlar, sirt o'lchovlarining Furye almashtirishi, o'rama operatorlaridan iborat.

Tadqiqotning predmeti. O'lchov Furye almashtirishining cheksizdagi xarakterini o'rganish va tebranuvchan integrallar bilan bog'liq bo'lgan Rendol maksimal funksiyasining xarakterini, shuningdek, qat'iy giperbolik tenglamalar uchun Koshi masalasining yechimlari bilan bog'langan o'rama operatori uchun a-prior baholarni tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda matematik analiz, kompleks analiz, funktsional analiz, matematik fizika, tebranuvchan integrallar nazariyasi, differensiallanuvchi funksiyalarning maxsusliklari nazariyasi, darajali geometriya usullari, shu jumladan Nyuton ko'pyoqliklari usullari, differensial geometriya usullari qo'llaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat**:**

E_7 va E_8 tipidagi maxsusliklarga ega boʻlgan funksiyalar grafiklari sifatida berilgan gipersirtlarda mujassamlashgan oʻlchovlarning Furye almashtirishining yangi baholari topilgan va bu baholarning aniqligi koʻrsatilgan;

D tipidagi maxsusliklarga ega boʻlgan sirtlar bilan bogʻlangan oʻlchovlar orqali aniqlangan Rendol tipidagi maksimal funksiyalarning integrallanish koʻrsatkichi topilgan va uni aniqligi hamda bahoning D tipidagi maxsuslik karraligiga bogʻliq emasligi isbotlangan;

E_7 va E_8 tipidagi maxsusliklarga ega boʻlgan sirtlarda mujassamlashgan oʻlchovlar bilan bogʻliq Rendol tipidagi maksimal funksiyalarning integrallanish koʻrsatkichi topilgan va integrallanish koʻrsatkichining aniqligi isbotlangan;

qat’iy giperbolik tenglamalar uchun qoʻyilgan Koshi masalasining yechimi bilan bogʻlangan oʻrama operatorlari chegaralangan boʻladigan kritik koʻrsatkichining aniq qiymati topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot fundamental xarakterga ega. Lekin sirtlarda mujassamlashgan oʻlchovlar Furye almashtirishining xarakterini topish masalasi sonlar nazariyasidagi gomotetik sohalarda butun sonlar sonini topish masalasida, hisoblash matematikasida kubatur formulalarda qoldiq hadni baholash masalalarida qoʻllanilgan;

integral operatorlarining chegaralanganligi haqidagi natijalar yordamida matematik fizika tenglamalarining psevdo-differensial operatorlar bilan bogʻliq umumlashgan toʻlqin tenglamalari yechimlari baholangan.

Tadqiqot ishonchliligi. Matematik analiz, matematik fizika, funksional analiz, kompleks analiz, differensial geometriya hamda qat’iy matematik mantiq usullarni qoʻllanilishi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ulardan matematik fizikaning differensial tenglamalari, xususan, umumlashgan toʻlqin tenglamasi, qat’iy giperbolik tenglamalar uchun Koshi masalasi va diskret Shryodinger, diskret Klayn-Gordon tenglamalari yechimlarini baholashda foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati fizik jarayonlarni tavsiflovchi modellar bilan bogʻlangan matematik fizika tenglamalarini sonli yechishda nazariy asos sifatida qoʻllanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sodda maxsusliklar bilan bogʻlangan ekstremal masalalarga oid natijalar asosida:

gipersirtlardagi oʻlchovlar Furye almashtirishlarining aniq baholariga oid natijalar Qozogʻiston respublikasi Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universitetining № AP09259074 sonli “Kasr tartibli differensial tenglamalar yechimlarini qurish usullari, boshlangʻich va chegaraviy masalalarning yechilish usullari” mavzusidagi loyihada Giperbolik tenglamalar uchun Koshi masalasini yechishda qoʻllanilgan (Qozogʻiston respublikasi Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universitetining 2024 yil 7 noyabr, 03/3108 raqamli ma’lumotnomasi). Olingan natijalar yuqori tartibli qat’iy giperbolik tenglamalar uchun Koshi masalasi yechimi silliqlik ko‘rsatkichining aniq bahosini olish imkonini bergan;

yadrosi tebranuvchan integral operatorlarning chegaralanganligiga oid natijalar O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining "Ikkinchi va yuqori tartibli aralash tipdagi tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni o‘rganish" fundamental tadqiqot OT F4–88, 2017–2020 loyihasida yuqori tartibli giperbolik tenglama uchun chegaraviy masalalarni yechishda qo‘llanilgan (V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti 2024 yil 6 noyabrdagi, 2/402 raqamli ma’lumotnoma). Olingan natijalar Koshi masalasining boshlang‘ich shartlaridan foydalangan holda yuqori tartibli giperbolik tenglamalarning yechimi uchun aniq baho olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy amaliy anjumanlarda, jumladan 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 4 tasi Scopus va Web of Science bazasiga kiruvchi xorijiy jurnallarda va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning Hajmi 115 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Zarur ta’riflar va ma’lum natijalar”** deb nomlanuvchi birinchi bobida biz kerakli ta’riflar va tadqiqotimiz bilan bog‘liq ba’zi ma’lum natijalarni keltiramiz. Shuningdek, biz dissertasiyada foydalanilgan belgilar bilan tanishamiz. Bundan tashqari, sodda Arnol’d maxsusliklari haqidagi ba’zi natijalarning sodda isbotlarini keltiramiz. Ayniqsa, biz biror nuqtada E_7 yoki E_8 tipidagi maxsusliklarga ega bo‘lgan funksiyalardan normal shakli haqidagi tasdiqning elementar isbotini keltiramiz. Shuningdek, E_7, E_8 tipidagi maxsusliklarga ega bo‘lgan funksiyalarning chiziqli, maxsus nuqtani o‘zgartirmaydigan, almashtirishlarga nisbatan normal shaklini beramiz. Shuni ta’kidlash joizki biz foydalanadigan asosiy vositalardan biri Nyuton ko‘pyoqliklari va muofiqlashgan koordinatalar sistemasidir. Biz silliq funksiyaning, markazi maxsus nuqtada bo‘lgan, darajali qatoriga mos Nyuton ko‘pyoqligi bilan bog‘liq tushunchalarni kiritamiz va silliq funksiyaning balandligi va chiziqli balandligini aniqlaymiz.

Dissertatsiyaning “**Sodda maxsusliklar bilan bog‘liq sirt o‘lchovlarining Furye almashtirishining integrallanuvchiligi**” deb nomlanuvchi ikkinchi bobi sirt o‘lchovlari Furye almashtirishlari bilan bog‘langan Rendol maksimal funksiyalarining baholari va ularning sirt o‘lchovlari Furye almashtirishlarining biror daraja bilan integrallanishi masalasiga tadbiqlariga bag‘ishlangan.

II bobda biz sodda Arnold maxsusliklariga ega bo‘lgan silliq funksiyalar grafiklari bilan $\mathbb{R}^3$ da berilgan S silliq sirtlarida mujassamlashgan o‘lchovlar Furye almashtirishining baholarni muhokama qilamiz. Ushbu sirtlarning bosh egriliklari ma’lum bir nuqtada nolga aylanadi deb faraz qilamiz. Shuni ta’kidlash joizki, Evklid fazosidagi har qanday silliq gipersirt o‘zining har bir nuqtasining yetarli kichik atrofida (ya’ni lokal ma’noda) biror silliq funksiyaning grafigi sifatida berilishi mumkin. Bundan tashqari, agar $n \leq 6$ bo‘lsa, har qanday umumiy holatdagi silliq gipersirt faqat sodda Arnold maxsusligiga ega silliq funksiya grafigi sifatida ifodalanadi. Biroq, mos keladigan faza funksiyasi oddiy maxsusliklarning universal (bunga versal deb yuritiladi) qo‘zg‘alishi ya’ni deformatsiyasidir. Biz sodda maxsusliklarga ega bo‘lgan funksiyalarning chiziqli qo‘zg‘alishlarini (deformatsiyasini) ko‘rib chiqamiz. Arnold terminologiyasi ma’nosida bu qo‘zg‘alishlar universal emas (ya’ni versal emas). Shunday qilib, mos keladigan gipersirt umumiy holatda emas. Bunday holda, tegishli tebranuvchan integrallarning xarakaterini o‘rganish muammosi ancha nozik muammodir.

Shubhasiz, umumiy holda fazasi maxsusliklarga ega bo‘lgan ixtiyoriy funksiya bo‘lgan tebranuvchan integrallarni o‘rganish geometrik tahlilning murakkab ochiq masalasidir. Biz o‘zimizni balandligi ikkidan kichik bo‘lgan funksiyalar bilan cheklaymiz. Shunday qilib, mos keladigan funksiya faqat sodda, ya’ni A, D, E tipidagi maxsusliklarga ega bo‘ladi. Tegishli sirtning ikkala bosh egriliklari D va E tipidagi maxsusliklar holida koordinatalar boshida nolga aylanadi.

II bob natijalarining qat’iy matematik bayoniga o‘tamiz. Aytaylik, $S \subset \mathbb{R}^3$ silliq gipersirt bo‘lsin va $\varphi \in C_0^\infty(S)$ shu gipersirtda aniqlangan tashuvchisi kompakt cheksiz silliq funksiya bo‘lsin. $d\mu(X) := \varphi(X)dS$ tenglik bilan aniqlangan zaryadni qaraymiz, bunda dS, S gipersirtdagi indusirlangan Lebeg o‘lchovidir. Xususan, agar φ manfiy bo‘lmagan funksiya bo‘lsa, biz Borel sirt o‘lchoviga ega bo‘lamiz.

$d\mu$ zaryadning Furye almashtirishi quyidagi integral bilan aniqlanadi:

$$\widehat{d\mu}(\xi) = \int_S e^{iX\xi} d\mu(X),$$

bu $d\mu$ zaryad bilan aniqlangan taqsimotning Furye almashtirishiga mos keladi (bu tasdiq V. P. Palamodov monografiyasidan ko‘rinib turibdi), bunda $X\xi$, X va ξ vektorlarning skalyar ko‘paytmasi.

Biz $\widehat{d\mu}(\xi)$ ga mos keladigan Randolning maksimal funksiyasini aniqlaymiz:

$$M(\omega) = \sup_{r>0} r|\widehat{d\mu}\,(r\omega)|.$$

Bu yerda $\omega \in S^2$ (S^2 - esa markazi $\mathbb{R}^3$ fazoning koordinatalar boshida bo‘lgan birlik sfera). Agar S silliq gipersirt bo‘lsa, deyarli barcha $\omega \in S^2$ uchun $M(\omega)$ - chekli va - Borel ma’nosida o‘lchovli funksiya bo‘lishini ko‘rsatish mumkin.

E’tirof etamizki, agar S qat’iy qavariq gipersirt (yoki umumiyroq Gauss egriligi biror nuqtada ham nolga teng bo‘lmagan gipersirt) bo‘lsa, biz $\omega \in S^2$ yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi tekis bahoga ega bo‘lamiz:

$$\left|\widehat{d\mu}(r\omega)\right| \leq Cr^{-1}.$$

Shuning uchun bu holda M chegaralangan funksiya bo‘ladi.

Ushbu bobda biz quyidagi masalani ko‘rib chiqamiz: Quyidagi to‘plamning infimumi p_S ni toping:

$$p_S = inf\ \{p \in [1, \infty)\ har\ qanday\ \varphi \in C_0^\infty(S)\ uchun\ \widehat{d\mu} \in L^p(\mathbb{R}^3)\},$$

bu yerda $L^p(\mathbb{R}^3)$ $(1 \leq p < \infty)$ p-daraja bilan $\mathbb{R}^3$ to‘plamda integrallanuvchi funksiyalar fazosi, albatta, agar $p = \infty$, bo‘lsa biz muhim chegaralangan (ya’ni muhim qiymatlar to‘plami chegaralangan) funksiyalar fazosiga ega bo‘lamiz.

p_S soniga S gipersirt ustida mujassamlashgan zaryad $d\mu$ (ishora almashinuvchi o‘lchov) Furye almashtirishining aniq integrallanish ko‘rsatkichi deb ataladi.

Umuman olganda, $p_S = \infty$ holati yuz berishi mumkin. Masalan, gipertekislikda mujassamlashgan trivial bo‘lmagan istalgan o‘lchovning Furye almashtirishi p ning har qanday chekli qiymati uchun integrallanmaydi.

Biroq, agar gipersirt E. M. Stein tomonidan kiritilgan "egrilik" sharti deb ataladigan shartni qanoatlantirsa, u holda p_S chekli son bo‘ladi, ammo bu sonning aniq qiymatini topish muammosi juda qiyin masala hisoblanadi. Shunga o‘xshash masalalar bilan I.M. Vinogradov, Xua-Lo-Gen, G. I. Arxipov, A.A. Karatsuba, V.N. Chubarikov, G. Mokenhaupt va bir qancha mashhur matematiklar shug'ullangan.

Bundan keyin, biror tayinlangan nuqtaning yetarlicha kichik atrofida, aytaylik, koordinatalar boshining yetarli kichik atrofida, gipersirt $S, x_3 = \phi(x_1, x_2)$ silliq funksiya grafigi sifatida berilgan bo'lib, bu funksiya $\phi(0) = 0$ va $\nabla\phi(0) = 0$ ya'ni $\partial_1\phi(0) = \partial_2\phi(0) = 0$ shartlarni qanoatlantirsin va ϕ koordinatalar boshida $D_{k+1}^{\pm}(3 \le k \le \infty)$ yoki $E_k(6 \le k \le 8)$ kabi sodda maxsusliklar qatoriga kiruvchi maxsusliklarga ega bo'lsin.

Ushbu II bobning asosiy natijalari quyidagi teoremada jam bo'lgandir.

2.1-teorema. *Aytaylik, $S \subset \mathbb{R}^3$, $\phi(x_1, x_2)$ funksiyasining grafigi sifatida aniqlangan silliq gipersirt bo'lsin, ya'ni,*

$$S := \{x \in \mathbb{R}^3 : x_3 = \phi(x_1, x_2)\},$$

bu yerda ϕ - quyidagi shartlarni qanoatlantiradigan silliq funksiya:
i) ixtiyoriy $\alpha_1 + \alpha_2 \le 2$ shartni qanoatlantiruvchi $(\alpha_1\alpha_2) \in \mathbb{Z}_+^2$, multiindeks uchun $\partial_1^{\alpha_1}\partial_2^{\alpha_2}\phi(0,0) = 0$ tenglik tenglik o'rinli;
ii) ϕ funksiya nol nuqtada karraligi ko'pi bilan 7 bo'lgan maxsuslikka ega.
U holda nol nuqtaning shunday U atrofi mavjud bo'lib, istalgan $\varphi \in C_0^\infty(U)$ zichlik funksiyasi uchun $\widehat{d\mu} \in L^{3+0}(\mathbb{R}^3) := \bigcap_{p>3} L^p(\mathbb{R}^3)$ munosabat o'rinli bo'ladi.

Izoh. *Shuni ta'kidlash kerakki, agar*

$$D^2\phi(0,0) := \begin{pmatrix} \partial_1^2\phi(0,0) & \partial_1\partial_2\phi(0,0) \\ \partial_2\partial_1\phi(0,0) & \partial_2^2\phi(0,0) \end{pmatrix} \neq 0$$

ya'ni, agar sirtning bosh egriliklaridan kamida bittasi $\mathbb{R}^3$ fazo koordinatalar boshida nolga aylanmasa, u holda, umuman olganda, 2.1- teoremaning tasdig'i o'rinli bo'lmaydi.

Masalan, aytaylik, $\phi(x_1, x_2) = x_1^2 + x_2^5$ bo'lsin; bu funksiya uchun kritik nuqtaning karraligi 4 ga teng. Shunda biz buni osongina ko'rsata olamizki quyidagi munosabat $\widehat{d\mu} \notin L^{22/7}(\mathbb{R}^3)$ o'rinli bo'ladi. Bu ikkala bosh egrilikning nolga aylanish shartining mohiyatini va muhimligini tushuntiradi.

Boshqa tomondan, agar kritik nuqtaning karraligi 7 dan katta bo'lsa, u holda 2.1- teoremaning tasdig'i bajarilmaydi, buni biz E_8 tipidagi maxsuslikka ega bo'lgan funksiya misolida ko'rishimiz mumkin. Aniqroq qilib aytganda, agar ϕ funksiya E_8 maxsuslikning normal shakliga ega bo'lsa, ya'ni $\phi(x_1, x_2) = x_1^3 + x_2^5$ bo'lsa, u holda $m(\phi) = 8$ va $\widehat{d\mu} \notin L^{22/7}(\mathbb{R}^3)$, ya'ni 2.1-teoremaning tasdig'i bajarilmaydi.

Shunday qilib, bizda $\widehat{d\mu} \in L^{3+0}(\mathbb{R}^3)$ munosabatning haqiqiyligini kafolatlaydigan kritik nuqtalarning karraligi uchun aniq baho olindi. Asosiy teoremadagi integrallanish ko'rsatkichining aniqligi quyidagi tasdiqdan kelib chiqadi.

2.4-tasdiq. *Aytaylik, $S \subset \mathbb{R}^3$ koordinatalar boshini saqlovchi C^2-silliq gipersirt bo'lsin, $d\mu$ o'lchov esa quyidagi tenglik bilan aniqlangan bo'lsin:*

$$\widehat{d\mu}(\xi) := \int_S e^{ix\xi}\varphi(x)dS,$$

va φ yetarlicha kichik tashuvchiga ega bo'lib, nomanfiy uzluksiz funksiya bo'lib va $\varphi(0) > 0$ shart bajarilsin. U holda ixtiyoriy $1 \leq p \leq 3$ son uchun $\widehat{d\mu} \notin L^p(\mathbb{R}^3)$ munosabat o'rinli bo'ladi.

Quyidagi teorema II bobning 2.4-paragrafida isbotlangan.

2.6- teorema. *Aytaylik, $S \subset \mathbb{R}^3$ silliq gipersirt quyidagi grafik sifatida berilgan bo'lsin:*

$$S = \{x \in \mathbb{R}^3 : x_3 = \phi(x_1, x_2)\}$$

bundagi silliq funksiya quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

(i) $\phi(0,0) = 0, \nabla\phi(0,0) = 0$*;*

(ii) ϕ funksiya $\mathbb{R}^2$ fazo koordinatalar boshida $D_{k+1}(3 \leq k < \infty)$ tipidagi maxsuslikka ega.

U holda nol nuqtaning shunday $U \subset \mathbb{R}^3$ atrofi mavjud bo'lib, ixtiyoriy $\varphi \in C_0^\infty(U)$ zichlik funksiya uchun, $\widehat{d\mu} \in L^{3+0}(\mathbb{R}^3)$ munosabat o'rinli bo'ladi.

Izoh. *Shunisi qiziqki, D tipdagi maxsuslik sinfining o'ziga xosligi shundan iboratki, o'lchov Furye almashtirishining aniq L^p-bahosi kritik nuqtaning karraligiga (ya'ni, k ga) bog'liq emas. Biroq, bu hodisa boshqa maxsusliklar hollarida kuzatilmaydi. Bundan tashqari, shunga o'xshash natija $R -$ sharti ostida D_∞ tipidagi cheksiz silliq funksiya maxsusliklari uchun o'rinli bo'ladi. Bunday natijalar D_∞ ga ega funksiya grafigi sifatida berilgan S analitik sirtlar uchun N.A. Soleevaning maqolasida isbotlangan. Shunday qilib, 2.6- teorema yuqorida zikr etilgan maqola natijalarini silliq D_{k+1} $(k < \infty)$ maxsusliklar uchun va $R -$ sharti ostida D_∞ silliq sirtlar holi uchun kengaytiradi.*

2.5-paragrafda quyidagi teoremani isbotlaymiz.

2.14-teorema. *Aytaylik, $S \subset \mathbb{R}^3$quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $x_3 = \phi(x_1, x_2)$ silliq funksiya grafigi sifatida berilgan silliq gipersirt bo'lsin:*

(i) $\phi(0,0) = 0, \nabla\phi(0,0) = 0$*;*

(ii) ϕ funksiya $\mathbb{R}^2$ fazo koordinatalar boshida E_6 yoki E_7 tipidagi maxsusliklarga ega.

U holda nol nuqtaning shunday U atrofi mavjud bo'lib, istalgan $\varphi \in C_0^\infty(U)$ zichlik funksiya uchun $\widehat{d\mu} \in L^{3+0}(\mathbb{R}^3)$ tegishlilik munosabati o'rinli bo'ladi.

Asosiy 2.1-teoremaning isboti 2.6- teorema va 2.14- teoremaga asoslanadi. Dissertatsiya ishining **"Furye integral operatorlarining kritik ko'rsatkichi uchun baholar"** deb nomlangan uchinchi bobi qat'iy giperbolik tenglamalar uchun Koshi masalasini yechimlari bilan bog'liq o'rama operatorini o'rganishga bag'ishlangan.

III bobda asosan o'rama operatori uchun $L^p(\mathbb{R}^3) \to L^{p'}(\mathbb{R}^3)$ chegaralanganlik masaslasini qaraymiz, bunda $1 \leq p \leq 2$ va p' qo'shma daraja, ya'ni $1/_p + 1/_{p'} = 1$ tenglikni qanoatlantiruvchi son. Bu o'rama operatorining yadrosi quyidagi munosabatdan aniqlanadi:

$$M_k = F^{-1} e^{i\varphi(\xi)} a_k(\xi) F$$

bu yerda $F -$ Furye almashtirishi operatori, $\varphi \in C^{\infty}(\mathbb{R}^n \setminus \{0\})$ koordinata boshidan tashqarida silliq, darajasi 1 bo‘lgan bir jinsli funksiya, $a_k \in C^{\infty}(\mathbb{R}^n)$ funksiya esa katta ξ lar uchun darajasi $-k$ bo‘lgan bir jinsli funksiya.
Biz M. Sugimotoning maqolasida isbotlangan natijalarni umumlshtiramiz.
Bu baholar

$$\Sigma = \{\xi \in \mathbb{R}^{\nu} \setminus \{0\}: \varphi(\xi) = 1\}$$

gipersirtda mujassamlashgan o‘lchov Furye almashtirishining asimptotik xarakterini tadqig‘iga asoslanadi.
Shuni ta’kidlaymizki, Furye almashtirishining xarakteri Σ gipersirtning geometrik xossalariga bog‘liq.

Endi biz M_k lokallashtirilgan o‘rama operator uchun baholarni qaraymiz.

Faraz qilaylik, a_k amplituda funksiyasi $(0,0,1)$ nuqtaning yetarlicha kichik konussimon atrofida mujassamlashgan va $\Sigma \subset \mathbb{R}^3$ gipersirtning bu atrofdagi qismi silliq hamda $\phi(0,0) = 0$ va $\nabla\phi(0,0) = 0$ shartlarini qanoatlantiradigan $x_3 = 1 + \phi(x_1, x_2)$ funksiya grafigi sifatida berilgan.

Bu bobdagi asosiy natijalarimizni bayon qilish uchun bizga quyidagi tasdiq kerak bo‘ladi.

3.1-tasdiq. *Faraz qilaylik ϕ, $\mathbb{R}^2$ koordinatalar boshining biror atrofida aniqlangan silliq funksiya bo‘lib, quyidagi shartlarni qanoatlantirsin: $\partial_2^2\phi(0,0) \neq 0$ hamda $(0,2)$ dan farqli har qanday $|\gamma| \leq 2$ shartni qanoatlantirivchi γ uchun $\partial^{\gamma}\phi(0,0) = 0$ bo‘lsin. U holda ϕ funksiya koordinatalar boshining yetarlicha kichik atrofida quyidagi shaklda yozilishi mumkin:*

$$\phi(x_1, x_2) = b(x_1, x_2)\big(x_2 - \psi(x_1)\big)^2 + b_0(x_1),$$

bu yerda b, b_0 va ψ silliq funksiyalar hamda $b(0,0) \neq 0$. Agar ψ (mos ravishda b_0) tekis funksiya bo‘lmasa, u holda ψ (mos ravishda b_0) funksiya $\psi(x_1) = x_1^m\omega(x_1)$, $m \geq 2$ shaklida $\omega(0) \neq 0$ ni qanoatlantiradigan silliq ω funksiya, (mos ravishda $b_0(x_1) = x_1^n\beta(x_1)$, $\beta(0) \neq 0, n \geq 2$ ni qanoatlantiruvchi silliq funksiya bilan yozilishi mumkin.

Bundan tashqari, agar Σ, C^{∞} gipersirt hamda b_0 tekis funksiya bo‘lsa, u holda $b_0 \equiv 0$ deb faraz qilamiz. Bu shart Mueller tomonidan kiritilgan "$R-$ condition" deb ataladigan shartga mos keladi. Albatta, agar ϕ haqiqiy analitik funksiya bo‘lsa, $R -$sharti avtomatik ravishda bajariladi.

Ushbu III bobda biz III bobning asosiy natijalari bo‘lgan quyidagi teoremani isbotlaymiz.

3.3-teorema. *Aytaylik, $\Sigma \subset \mathbb{R}^3 \setminus \{0\}$ sirt $v = (0,0,1) \in \Sigma$ nuqtada kamida bitta nolmas bosh egrilikka ega silliq sirt va $1 \leq p \leq 2$ tayinlangan son, shuningdek (m, n) 3.1-tasdiqda aniqlangan juftlik bo‘lsin.*
U holda quyidagi tasdiqlar o‘rinli bo‘ladi:
(i) Agar $2m \geq n$ (hamda $2 \leq n \leq \infty$) bo‘lsa, u holda $k_p(v) = \left(5 - \frac{2}{n}\right)\left(\frac{1}{p} - \frac{1}{2}\right)$;
(ii) Agar Σ $R -$shartni qanoatlantiruvchi silliq gipersirt va $m \geq 3$ hamda $2m < n \leq \infty$ bo‘lsa u holda

$$k_p(v) = max\left\{\left(5-\frac{1}{m}\right)\left(\frac{1}{p}-\frac{1}{2}\right), \left(6-\frac{2(m+1)}{n}\right)\left(\frac{1}{p}-\frac{1}{2}\right)-\frac{1}{2}+\frac{m}{n}\right\}$$

tenglik o'rinli bo'ladi.

Endi D va E tipidagi maxsusliklar uchun shunga o'xshash natijalarni ko'rib chiqamiz. Shunday qilib, D tipidagi maxsuslikdan farqli $h(\phi) < 2$, bo'lgan ixtiyoriy funksiyalar uchun aniq natijalarga erishamiz.

3.16-teorema. *Agar ϕ funksiya $E_k(6 \le k \le 8)$ tipidagi maxsusliklarga ega bo'lsa, u holda quyidagi munosabat*

$$k_p(v) = \left(6-\frac{2}{h(\phi)}\right)\left(\frac{1}{p}-\frac{1}{2}\right)$$

o'rinli bo'ladi.

Shunga o'xshash natija M. Sugumoto tomonidan qaralmagan chunki (0,0,1) nuqtada ikkala bosh egrilik ham nolga aylanadi.

XULOSA

Mazkur dissertatsiya ishi sirt oʻlchovlarining Furye almashtirishining xarakterini oʻrganishga va olingan natijalarni tebranuvchan yadroli oʻrama operatorlari uchun chegaralanganlik muammosiga qoʻllashga bagʻishlangan. Xususan, qat'iy giperbolik tenglamalar uchun Koshi masalasining yechimlari silliq funksiyalar aniqligida bunday oʻrama operatorlari shaklida yozilishi mumkin. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni jami kirish, uchta bob 16 ta paragrafdan iborat:

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

E_7 va E_8 tipidagi maxsuslikka ega boʻlgan funksiya grafigi sifatida berilgan silliq gipersirtlarda mujassamlashgan zaryadlarning (oʻlchovlarning) Furye almashtirishining baholari olingan, olingan baholarning aniqligi isbotlangan;

tegishli faza funksiyasining normal shakliga bogʻliq holda gipersirtlar sinflari oʻrganilgan integrallanish koʻrsatkichining maksimalligini ta’minlaydigan funksiya kritik nuqtasining maksimal karraliligi topilgan;

olingan baholar sodda maxsusliklar bilan bogʻliq boʻlgan gipersirtlarga mujassamlashgan oʻlchovlar Furye almashtirishini biror daraja bilan integrallanishi muammosini yechishga qoʻllanilgan va integrallanish darajasi D tipidagi maxsuslik karraliligiga bogʻliq emasligi isbotlangan;

qat’iy giperbolik tenglamalar uchun Koshi masalasini yechimi bilan bogʻliq boʻlgan oʻrama operatori chegaralangan boʻladigan darajalar toʻplamning infimumi topilgan. Sugumoto tipidagiga oʻxshash baholar olingan va olingan bahoning aniqligi isbotlangan;

SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 ON AWARDING ACADEMIC DEGREES AT THE SAMARKAND STATE UNIVERSITY

SAMARQAND STATE UNIVERSITY

IKROMOVA DILDORA ISROILOVNA

EXTREMAL PROBLEMS RELATED TO SIMPLE SINGULARITIES

01.01.01 – Mathematical analysis

ABSTRACT OF DISSERTATION OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

Samarkand – 2025

The theme of the dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the Ministry higher education, science and innovations of the Republic of Uzbekistan under number B2023.4.PhD/FM935

Dissertation was prepared at Samarkand State University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website (www.samdu.uz) and the «Ziyonet» Information and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	**Abdullayev Janikul Ibragimovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
Official opponents:	**Xalmuhammedov Alimdjan Raximovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
	Safarov Akbar Raxmanovich Doctor of Physical and Mathematical Sciences, docent
Leading organization:	**Urgench State University**

Defense will take place «2» 12 2025 at 10:00 at the meeting of Scientific Council number DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 at Samarkand State University. (Address: University Boulevard 15, Samarkand, 140104, Uzbekistan, Ph.: (+99866) 231-06-32, fax: (+99866) 235-19-38, e-mail: patent@samdu.uz).

Dissertation is possible to review in Information-resource center at Samarkand State University (is registered №94) (Address: University Boulevard 15, Samarkand, 140104, Uzbekistan, Ph.: (+99866) 231-06-32).

Abstract of dissertation sent out on «18» 11 2025 year
(Mailing report № 1 on «18» 11 2025 year)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI • SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI • O'ZBEKISTON

A.S.Soleev
Chairman of scientific council on award of scientific degrees, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor

A.M.Khalkhuzhaev
Scientific secretary of scientific council on award of scientific degrees, Doctor of Physical and Mathematical Sciences

S.N. Lakaev
Chairman of the Scientific Seminar at the Academic Council, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, professor, Academician

INTRODUCTION (abstract of PhD thesis)

Actuality and demand of the theme dissertation. In many scientific and applied research conducted in the world, in particular, in solving most problems of mathematical physics and spectral analysis, special importance is attached to the study of the evaluation of oscillatory integrals with large and small parameters. Nowadays, in developed countries, the problem of obtaining a-prior estimates of solutions to the Cauchy problem for strictly hyperbolic equations is linked to the boundedness issue of convolution operators with an oscillatory kernel in Lebesgue spaces such as $L^p(\mathbb{R}^n)$. In mathematics and theoretical physics, as well as in Fourier analysis and harmonic analysis, many models are described using differential equations and more general pseudo-differential equations.

In practice, we usually deal with solutions to differential equations in the sense of distributions. For example, in physics, experts are mostly interested in solutions with discontinuous points. The set of these points is called to be singularities of the solutions. The study of these singularities is the subject of harmonic analysis. Therefore, the development of research in harmonic analysis is becoming an important area of focus in mathematics.

In the world, finding a general solution to a differential equation in the space of distributions is a difficult problem. Surely, the singularities of the solution will not change if a smooth function is added to it. Therefore, in many cases, authors give priority to research on the construction of solutions to differential equations, up to smooth functions, and have a wide range of investigations. In this regard, weak solutions than the general distribution solution are often used in practice.The study of solutions to differential equations based on the space of integrable functions has been discussed in many articles. For example, the solution to the strictly hyperbolic equations, as well as discrete equations, have been studied in many papers. A-priori estimates for solutions, which depend on initial conditions and are known as dispersive estimates, have numerous applications in the field of mathematical physics and developing investigation is becoming actual.

In our Republic, conducting research at the level of international standards in the priority areas of[2] "Algebra and its applications, differential equations and their applications, non-linear systems, dynamic systems and mathematical modeling of their applications, stochastic analysis, medical-biological informatics, computational mathematics" is identified as one of the main tasks of the scientific researches. To ensure the successful implementation of the decision, it is crucial to develop a theoretical understanding of oscillatory integrals in relation to the Fourier transform of measures on surfaces, as well as estimates for Fourier integral operators defined by convolution with oscillatory kernels.

